



**Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali “Jamoat salomatligi va umumiy gigiyena” kafedrası mudiri, Ibadulla Qochkarovich Abdullayevning 70 yilligiga bag‘ishlangan “Sog‘liqni saqlash tizimida menejmentning zamonaviy muammolari va istiqbollari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman 2025-yil 20-21 oktabr**

## **O‘ZBEKISTON HUDUDIDA TARQALGAN KIYIK O‘TNING SHIFOBAXSH XUSUSIYATLARI.**

**Abdullayeva H.T.**

### ***Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali***

Odamlar qadim zamonlardan tabiat ne‘matlaridan foydalanib kelmoqdalar. Ayniqsa ko‘pgina kasalliklarni davolashda hamda oldini olishda dorivor o‘simliklardan keng foydalanganlar. Bundan 3-4 ming yil ilgari Hindiston, Xitoy, qadimgi Misr mamlakatlarida shifobaxsh o‘simliklar haqida ma‘lumotlar beruvchi asarlar yozilgan. Sharqda, xususan O‘rta Osiyo xalq tabobatida dorivor o‘simliklardan foydalanib davolash o‘zining an‘analariga ega. Shifobaxsh o‘simliklardan tibbiy maqsadlarda foydalanish borasida Abu Ali Ibn Sinoning “Al-qonun” asarida 476 ga yaqin o‘simlikning shifobaxsh xususiyatlari va ularni ishlatish usullari to‘g‘risida ma‘lumotlar keltirilgan. Dorivor o‘simliklar -odam va hayvonlarni davolash, kasalliklarni oldini olish uchun, shuningdek, oziq-ovqat, atir-upa, va kosmetika sanoatida ishlatiladigan o‘simliklar-giyohlar. Yer yuzida dorivor o‘simliklarning 10-12 ming turi aniqlangan. 1000 dan ortiq o‘simlik turining kimyoviy, farmakologik xossalari tekshirilgan. O‘zbekistonda dorivor o‘simliklarning 700 dan ortiq turi mavjud. Shulardan tabiiy sharoitda o‘sadigan va madaniylashtirilgan 120 ga yaqin o‘simlik turlaridan ilmiy va xalq tabobatida foydalaniladi. Hozirgi davrda tibbiyotda qo‘llanadigan doridarmonlarning qariyb 40-47% o‘simlik xom ashyolaridan olinadi. O‘simliklar murakkab tuzilishga ega bo‘lgan jonli tabiiy kimyoviy laboratoriya bo‘lib, oddiy noorganik moddalardan murakkab organik moddalar yoki birikmalar yaratish qobiliyatiga ega. Dorivor o‘simliklarning quritilgan o‘ti, kurtagi, ildizi, ildizpoyasi, tunganagi, piyozi, po‘stlog‘i, bargi, guli, g‘unchasi, mevasi (urug‘i), danagi, sharbati, qiyomi, toshchoyi, efir moylari va boshqalardan doridarmon tarzida foydalaniladi. Dorivor o‘simliklarni 2 xil tasniflash qabul qilingan 1) ta‘sir qiluvchi moddalarning tarkibiga qarab: alkaloidli, glikozidli, efir moyli, vitaminli va boshqalar; 2) farmakologik ko‘rsatkichlariga qarab: tinchlantiruvchi, og‘riqqoldiruvchi, uxlatuvchi, yurak-tomir tizimiga ta‘sir qiluvchi, markaziy nerv sistemasini qo‘zg‘atuvchi, qon bosimini pasaytiruvchi va boshqalar.

Dorivor o‘simliklarning organizmga ta‘siri uning tarkibidagi kimyoviy birikmalarning miqdoriga bog‘liq. Bu birikmalar o‘simlikning qismlarida turli miqdorda to‘planadi. Dorining ta‘sirchanlik quvvati hamda sifati yuqori bo‘lish davri ularning gullash va urug‘lash davrining boshlanishi vaqtiga to‘g‘ri keladi. Dorivor moddalar ba‘zi o‘simliklarning kurtagi, bargi yoki poyasida, ba‘zi o‘simliklarning guli yoki mevasida, ba‘zilarida ildizi yoki po‘stlog‘ida to‘planadi. Shuning uchun o‘simliklarning asosan biologik aktiv moddalari ko‘p bo‘lgan qismi yig‘ib olinadi.

O‘zbekiston hududida keng tarqalgan shifobaxsh o‘simliklardan anor, achchiqmiya, bodom, do‘g‘buy, dorivor gulxayri, yong‘oq, jag‘-jag‘, zubtutum, isiriq, itburun, omonqora, pista daraxti, sachratqi, choyo‘t, shildirbosh, shirinmiya, shuvoq, yantoq, yalpiz, kiyik o‘t, tog‘rayxon, qizilcha, qoqio‘t va boshqalardan tabobatda keng foydalaniladi. Bu dorivor o‘simliklar o‘ziga xos xususiyatga ega bo‘lib, har bir giyoh va uning tarkibidagi birikmalar ma‘lum bir kasallikni bartaraf qiladi. Masalan achchiqmiyadan paxikarpin, oqquraydan pesni davolashda qo‘llanadigan psoralen, isiriqdan garmin, itsigekdan anabazin, omonqoradan galantamin, shildirboshdan sferofizin va boshqa alkaloidlar olinadi. Anor po‘stidan gijja haydovchi pelterin tanat va ekstrakt tayyorlanadi. Dorivor gulxayri preparatlari balg‘am ko‘chiruvchi va yumshatuvchi, jag‘-jag‘ va lagoxilusdan tayyorlangan dorilar qon ketishini to‘xtatuvchi, pista bujg‘uni va choyo‘tdan tayyorlangan dorilar me‘da ichak kasalliklarini davolashda ishlatiladi.

Respublikamiz tabobatida shifobaxshligi jihatidan oldingi o‘rinlarda turadigan o‘simlik - bu kiyik o‘tdir. Kiyik o‘ti (Zizifora) turkumi labguldoshlar (Labiatae) oilasiga mansub ko‘p yillik o‘simlik bo‘lib, respublikamizda bu turkumning 7 turi uchraydi. Tabobatda va oziq-ovqat sanoatida



**Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali “Jamoat salomatligi va umumiy gigiyena” kafedrasi mudiri, Ibadulla Qochkarovich Abdullayevning 70 yilligiga bag‘ishlangan “Sog‘liqni saqlash tizimida menejmentning zamonaviy muammolari va istiqbollari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman 2025-yil 20-21 oktabr**

esa, asosan tabiatda keng tarqalgan uchta turi “kiyik o‘t” nomi bilan ishlatiladi. Mahalliy aholi kiyik o‘tini “ko‘k o‘ti”, “bo‘yi non” kabi turli nomlar bilan ham atashadi. Kiyik o‘ti balandligi 40 sm gacha yetadigan o‘simlik bo‘lib, poyasi ko‘p, asosi yog‘ochlangan, biroz egilgan, ingichka, sernovdali, mayin tukchalar bilan qoplangan. Bargi nashtarsimon, ponasimon, o‘tkir uchli, tukli yoki momiq tukchalidir. Poya hamda novdachalari uchidagi gullari bandli to‘pgul shaklida joylashgan. Gultojibarg 7-8 mm och gunafsha rangli, xushbo‘y, iyun va iyul oylarida gullaydi, urug‘i iyul-sentabr oylarida yetiladi. Kiyik o‘ti tog‘li rayonlarning asosan shimoliy va janubiy yonbag‘irlarida shag‘alli va toshli joylarda tarqalgan. Yurtimizda Toshkent, Namangan, Jizzax, Samarqand, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarining tog‘li tumanlarida o‘sadi. Bu o‘simlikka “Kiyik o‘ti” deb nom berilishining asosiy sabablaridan biri bu o‘simlik kiyiklarning, burama shoxli yovvoyi echkilar va yovvoyi tog‘ qo‘ylarining asosiy ozuqasi hisoblanadi. Mahalliy aholi kiyik o‘tini zirovar sifatida turli taomlarga qo‘shishadi, chunki uning tarkibidagi efir moylari, vitaminlar va odam organizmi uchun zarur bo‘lgan makro va mikro elementlar mavjud. Xalq tabobatida kiyik o‘tlaridan buyrak, yurak, jigar va oshqozon ichak hastaliklarini davolashda keng foydalaniladi. Ilmiy tabobatda ularning damlamasi yurakning ish faoliyatini yaxshilashda, arterial qon bosimini pasaytirishda hamda peshob haydovchi dori vositasi sifatida keng qo‘llaniladi. O‘simlikning yer ustki qismlari -poyasi, bargi va to‘pgullari tarkibida 2.5 foizgacha efir moylari, C, A, E vitaminlari mavjud. Shuningdek tibbiyotda ichak hastaliklarida (ichburug‘, kolit), nerv sistemasi kasalliklarida tinchlantiruvchi sifatida, yaralarning tez bitishida, jigar hastaliklarini davolashda, ayniqsa sariq kasalligi- gepatitni samarali davolashda ishlatilmoqda. Ayniqsa qorin dam bo‘lishi, tish og‘rig‘i va charchoq, quvvatsizlikka shifo. O‘simlik tarkibidagi faol biologik moddalar: mentol, saponinlar hamda vitaminlar A, E mavjudligi sababli yurak faoliyatini yaxshilaydi, timol moddasi esa gijjalarga va mikroblarga qarshi samarali ta’sir ko‘rsatadi. Undan tashqari kiyik o‘ti rak (saron) hujayralarini ham yo‘qotish xususiyatiga egaligi olimlar tomonidan isbotlangan. Kiyik o‘t nafaqat tabobatda balki, oziq-ovqat sanoatida ham keng qo‘llaniladi. Hozirgi kunda kiyik o‘ti bilan boyitilgan choylar va “fitochoy” lar ishlab chiqarilmoqda va muvaffaqiyatli ravishda ishlatilib kelinmoqda. Uning asosida professor Q.Xojimatov tomonidan chanqoqbosti shifobaxsh alkogolsiz “Toshkent” ichimligi yaratilgan.

Bu shifobaxsh ichimliklar chanqoq bosishi bilan birga kishi salomatligini tiklashga, tashqi muhit omillariga jidamliligini oshirishga hamda umr davomiyligini oshirishga yordam beradi.